


## IX. ISTE'MOL BOZORI


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 27 232,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 12,2 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 5 428,4 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 21 804,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 40,1 %, Urgut tumani 10,1 %, Kattaqo'rg'on shahri 5,8 %, Samarqand tumani 6,0 %, Pastdarg'om tumani 5,3 %, Bulung'ur tumani 4,0 %, Kattaqo'rg'on tumani 4,1 %, Jomboy tumani 3,6 %, Payariq tumani 3,6 % va Toyloq tumani 3,5 % chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da**




Viloyatda aholi jon boshiga 2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6 683,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,8 % ga ko'paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (19 263,0 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (17 151,9 ming so'm) va Bulung'ur tumanlarida (5 552,1 ming so'm) kuzatildi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Viloyat boʻyicha</b>	<b>6 683,1</b>	<b>109,8</b>
Samarqand sh.	19 263,0	112,4
Kattaqoʻrgʻon sh.	17 151,9	115,7
tumanlar:		
Bulungʻur	5 552,1	105,6
Jomboy	5 397,4	110,1
Ishtixon	3 250,4	105,2
Kattaqoʻrgʻon	3 912,9	104,2
Narpay	3 646,1	106,4
Nurobod	2 849,6	104,7
Oqdaryo	3 936,1	104,9
Payariq	3 669,4	105,3
Pastdargʻom	3 885,6	105,3
Paxtachi	3 492,6	106,1
Samarqand	6 161,6	117,7
Urgut	5 113,7	107,1
Toyloq	4 519,9	111,7
Qoʻshrabot	3 354,0	104,7

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, oʻtgan yilga nisbatan yuqori oʻsish surʼati Samarqand shahar, Kattaqoʻrgʻon shahar va Samarqand, Toyloq, Narpay tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarining hajmi 5 428,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 19,9 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 21 804,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,4 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,1 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yil yanvar-dekabr



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik


## Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>27 232,9</b>	<b>112,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
davlat mulki	2,3	144,2	0,01
nodavlat mulki	27 230,6	115,5	99,99

## 2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan, % da	Yakunga nisbatan, % da
<b>Chakana tovar aylanmasi</b>	<b>27 232,9</b>	<b>112,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	5 428,4	115,6	19,9
Kichik va mikrofirmalar	8 471,3	114,6	31,1
Norasmiy sektor	13 333,1	109,4	49,0

### Chakana savdo tarkibi, % da



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 767,3 mlrd. so'mni yoki 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi.